



UDK 81'362: 81'367.625

CONFIRMED AND NON-CONFIRMED CATEGORIES OF EVIDENTIALITY

Xamrayeva Maxzuna Gayratovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat chet tillari instituti doktoranti
makhzuna.khamraeva@gmail.com
Tel: +99890-616-29-89

Abstract. The following article discusses the history of the emergence of the category of evidentiality, its oral and written types according to the researches and approaches of many European scientists such as Jacobson, Makarsev, Friedman, Aikhenvald, Comrie, Willet, De Lancey and others. Moreover, in the article evidentiality is said to be a linguistic toll that expresses information that the subject has seen, heard, or received from others. Furthermore, the information is provided about confirmed and non-confirmed categories of evidentiality in the sample of Uzbek, Turkish, English and Kazak languages. Besides that, in the article the morphological interpretation of evidentiality as a grammatical category in the above-mentioned languages are also described.

Key words: *evidentiality, confirmation, non-confirmation, modality, mirativity, tense, involuntary, unexpectedness*

**ПОДТВЕРЖДЁННЫЕ И НЕПОДТВЕРЖДЁННЫЕ КАТЕГОРИИ
ЭВИДЕНЦИАЛЬНОСТИ**

Аннотация. В данной статье рассматривается история возникновения категории эвиденциальности, её устные и письменные виды согласно исследованиям и подходам многих европейских учёных как Якобсон, Макарецев, Фридман, Айхенвальд, Комри, Виллет, Лансей и других. Также в статье говорится что эвиденциальность – это лингвистический инструмент, выражающий информацию, которую субъект увидел, услышал или получил от других. Кроме того, представлена информация о подтверждённых и неподтверждённых категориях эвиденциальности на примерах узбекского, турецкого, английского и казакского языков. А также в статье описывается морфологическая интерпретация эвиденциальности как грамматическая категория в вышеупомянутых языках.

Ключевые слова: *эвиденциальность, подтверждение, неподтверждение, модальность, миративность, время, произвольность, неожиданность*

TASDIQLANGANLIK VA TASDIQLANMAGANLIK EVIDENSIALLIK KATEGORIYALARI

Annotatsiya: Makur maqolada evidensiallik kategoriyasining paydo bo‘lish tarixi, uning og‘zaki va yozma turlari haqida Yevropaning ko‘plab olimlari, jumladan Yakobson, Makarsev, Fridman, Ayhenvald, Komri, Villet, Lansey va boshqalar tadqiqotlari va yondashuvlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada evidensiallik subyekt o‘zi guvoh bo‘lgan, eshitgan yoki boshqalardan o‘zlashtirgan ma‘lumotini ifodalovchi lisoniy vosita ekani haqida so‘z boradi. Qolaversa, maqolada evidensiallikning tasdiqlanganlik va tasdiqlanmaganlik turlari haqida ma‘lumot berilib, o‘zbekcha, turkcha, inglizcha va qozoqcha misollar orqali tushuntiriladi. Maqolada, bundan tashqari yuqorida keltirilgan tillarda evidensiallikning grammatik kategoriya sifatida morfologik talqini haqida ham ta‘riflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *evidensiallik, tasdiqlanganlik, tasdiqlanmaganlik, modallik, mirativlik, zamon, ixtiyorsiz, kutilmaganlik*

KIRISH Evidensiallik lingvistik kategoriya bo‘lib, undagi bosh ma‘no ma‘lumot o‘chog‘i sanaladi. Bu esa, har qanday turdagi ma‘lumotning, u rost yoki yolg‘on bo‘lishidan qat‘iy nazar, tinglovchi tomonidan qabul qilinganini bildiradi. Evidensiallikda morfemalar ma‘lumotdagi chuqur yoki tag ma‘noga qaratilgan bo‘lib, u belgilanmagan yoxud bajarilmagan ish-harakat borasidagi ma‘lumotni ham anglatishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Evidensiallik atamasi hozirgi lingvistik ma‘noda birinchi marotaba 1957-yilda Roman Yakobson tomonidan Bolqon Slavyaniga quyidagi ta‘rif bilan murojaat qilgan holida ishlatilgan: Evidensiallik - og‘zaki toifa uchun taxminiy belgi bo‘lib, uchta hodisani – 1) hikoya voqeasi; 2) nutq voqeasi; 3) hikoya qilingan nutq hodisasini o‘z ichiga oladi [Jacobson 1990; 388].

Evidensiallik bu o‘ziga xos lingvistik kategoriya bo‘lib, unda so‘zlovchi ma‘lum voqeani tavsiflashda bevosita ishtirokchi yoki o‘zganing so‘zlarini yetkazuvchi sifatida o‘z rolini belgilaydi [Makarsev 2014; 28]. Evidensiallik subyekt o‘zi guvohi bo‘lgan, eshitgan yoki bilvosita o‘zlashtirgan ma‘lumotni ifodalovchi lisoniy vositalar tarkibi yig‘indisidir.

Grammatik evidensiallik ayrim tillarda rivojlangan bo‘lib, unda leksik birliklar va diskursiv hodisalar muhim o‘rin tutadi, modallik ifodasi va grammatik belgilar esa yordamchi ko‘rsatkich sifatida amal qiladi [Friedman 1988; 131].

Evidensiallik ingliz tilida grammatik kategoriya hisoblanmaydi, chunki u turli yo‘llar bilan ifodalanadi va har doim ixtiyoriydir. Aksincha, ko‘plab boshqa tillar (Kechua, Aymara, Yugakir) so‘zlovchidan dalillik uchun asosiy fe‘lni yoki jumlaning bir butun sifatida belgilashni talab qiladi yoki bilvosita dalillik uchun ixtiyoriy affikslar to‘plamini taklif qiladi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilvosita qabul qilinadi unda aytilgan ma‘lumot rost yoki yolg‘on bo‘lishi ahamiyatsiz.

Evidensiallik keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, keltirilgan bayonotdagi dalilning xususiyatini ishora qilish uchun qo‘llanadi hamda o‘sha bayonotda biror-bir dalil bo‘lsa, uning

qandayligini ifodalash uchun xizmat qiladi. Evidensiallik subyekt o‘zi guvoh bo‘lgan, eshitgan yoki boshqalardan o‘zlashtirgan ma’lumotini ifodalovchi lisoniy vositadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Evidensiallik – lingvistik kategoriyadir va unda so‘zlovchi ma’lum voqeani tavsiflashida bevosita ishtirokchi yoki o‘zganing so‘zlarini yetkazuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Evidensiallik so‘zlovchi voqeani boshqa birovning xabari (iqtibos yoki eshitish dalillari, tush (ya’ni vahiy dalillar), taxmin yoki so‘zlovchining avvalgi tajribasi (xotira) dalillari asosida boshqalarga yetkazadi [Aikhenvald 2004; 23]. Misol uchun,

Bob is hungry – Bobning qorni och.

Agar kimdir, ehtimol Bobning o‘zi bizga Bobning ochligini aytmasa, ikkinchisini aytishimiz mumkin. Biz buni hali hamon o‘zi uchun gapira olmaydigan odam o‘rniga ayta olamiz; chaqaloq yoki uy hayvonlari nomidan. Misol uchun,

Bob looks hungry. – Bob och ko‘rinayapdi.

Bob seems hungry. – Bob och bo‘lib tuyuldi.

Bob would be hungry by now. – Bob hozirgacha och qolgan bo‘lardi.

Bob must be hungry by now. – Bob hozirgacha och bo‘lsa kerak [Aikhenvald 2004, 25].

Evidensiallik atamasi muammoli sanaladi, chunki u bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, ammo bir-biridan farqlanuvchi ikki hodisaga ishora qiladi: 1) evidensial ma’no va 2) evidensial grammatik kategoriya [Comrie 2000; 29].

Masalan o‘zbek, turk, qozoq, ingliz tillarida evidensiallik ma’no ifodalash uchun bir qancha grammatik vositalar mavjud va ular ko‘pincha fe‘ldagi zamon orqali ifodalanadi, bu vositalarning hech biri Villettning asarlaridagi evidensiallikning og‘zaki turkumiga kirmaydi. Mazkur tillarda evidensiallik birlamchi neytral kategoriya sifatida nutqda gap yohud matn darajasida muhim o‘rin tutadi [Willet 1988; 53].

Evidensial ma’no statusi yoki modallikning og‘zaki kategoriyasi Anderson (1967) hamda Friedman (1978)ning ishlarida ishlab chiqilgan kategoriyalar sifatida ifodalanadi. Bular: 1) tasdiqlanganlik; 2) tasdiqlanmaganlik kategoriyalari. Tasdiqlanmaganlikning ifodasi bir necha usulda talqin qilinishi mumkin va ulardan biri dalil talqinidir. Tasdiqlanmaganlikni ifodalashning boshqa mumkin bo‘lgan natijalariga ixtiyorsizlik, ritorik savollar va kutilmagan ma’lumotlarning lingvistik ifodasi bo‘lgan admirativlik, boshqacha qilib aytganda, hayratga soluvchanlik kiradi. Ushbu hayratlanarlilik tilshunoslikda ba’zan mirativlik deb ham yuritiladi [Johanson 2003; 278]

Aytishlaricha ertaga qor yog‘ar ekan – o‘zbekcha

Yarın kar yağacak diyorlar – turkcha

Ертең қар жаадаы дейди – qozoqcha

They say it will snow tomorrow – inglizcha

Keltirilgan misollarning barchasi tasdiqlanmagan mish-mishni ifodalab kelmoqda.

Menimcha ertaga qor yog‘sa kerak, osmonni qalit bulutlar qoplab havo sovib ketti
– o‘zbekcha

Sanırım yarın kar yağacak, gökyüzü yoğun bulutlarla kaplı ve hava soğuk– turkcha
Менің ойымша, ертең қар жауады, аспанды қалың бұлт басып, ауа райы салқын – qozoqcha

I think it will snow tomorrow, the sky is covered with heavy clouds and the air is cold
– inglizcha.

Mazkur misollar tasdiqlangan ma’lumotni ifodalab xulosaviy evidensiallikka ishora qilmoqda.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda bir sariq sochli qizaloq bo‘lgan ekan. - o‘zbekcha

Bir varmış bir yokmuş, bir zamanlar sarı saçlı küçük bir kız varmış - turkcha

Ерте-ертеде, ақ сапы шапты қыз болынты - qozoqcha

Once upon a time, once upon a time there was a little girl with blonde hair – inglizcha

Keltirilgan misollar tasdiqlangan ma’lumotni ifodalab tarixiy evidensiallikni hosil qilmoqda.

Skot de Lancey mirativlik dalillikning quyi turi yoki hech bo‘lmaganda ular bilan bog‘liq bo‘lagi deb hisoblaydi [De Lancey 2001; 33]. Tasdiqlilikning quyi toifasidan foydalanib biz turli ma’nolarni birlashtira olamiz. Misol uchun o‘zbek, qozoq va turk tillarida, shuningdek boshqa ko‘plab genetik va hududiy tillarda tasdiqlanmaslik, birinchi navbatda o‘tgan zamon belgilari bilan ifodalanadi. Makur belgilar ko‘pincha o‘tgan zamon va tasdiqlanmaslikning birikmasidan ko‘ra, tasdiqlanmaslikni ifodalashdan iborat bo‘lgan belgilarga tayanadi.

Ertaga qor yog‘ar emishmi?/ yog‘arkanmi? – tasdiqlanmagan, epistemik modallik

Bo‘ying o‘sib qolibdimi? – tasdiqlanmagan, mirativlik

Evidensial tahlilda zamon va modallik bir-biri bilan o‘zaro aloqaga kirishadi, chunki, evidensial ko‘rsatkichlar temporal yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘ladi. Aksariyat hollarda evidensiallik aytilgan gapning biror-bir subyekt tomonidan qabul qilinishi bilan belgilanadi. Misol uchun,

Islom dinida aytishlaricha qiyomat qoyim bo‘lganda, jamiki odamzot tirilib to‘planadigan qo‘rqinchli dasht, qiyomat maydonida to‘planarmish.

Evidensiallikda shuningdek dalillikni ko‘rsatadigan maxsus grammatik elementlar ham mavjud. Bu elementlar sirasiga affiks, qo‘shimcha yoki yuklamalarni kiritish mumkin. Jumladan o‘zbek, qozoq va turk tillarida biz besh morfemaning zamonaviy reflekslari bilan shug‘ullanamiz. Ulardan uchtasi o‘zak bilan bog‘lanib, o‘tgan zamonni ifodalaydi: tasdiqlovchi bo‘lgan sodda o‘tgan zamon o‘zbekcha -di, -ti, turkcha -DI, -DU va qozoqcha -ди, -ды. Tasiqlash uchun belgilanmagan (zamonaviy tillarda perfekt (tugallangan) o‘zbekcha -gan, qozoqcha -ган hamda konverbial (so‘zlashuv) o‘tgan o‘zbekcha -ip, -ipdi, -ibdi, qozoqcha tasdiqlamaydigan -иб.

Quyidagi to‘rt tildagi tahlilga e’tibor qarataylik:

Ertede bir kempir bol-ïp-tï, onïñ žalğïz bala-sï bol-ïp-tï. - Qozoqcha

Bir zamanlar yaşlı bir bayan varmış, onun tek çocuğu varmış. - Turkcha

Qadimda bir kampir bo‘lgan ekan, uning yolg‘iz farzandi bor ekan. - O‘zbekcha

Long ago there was an old woman, she had a single child. - Inglizcha

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki tarixiy (folklor) evidensiallik turli tillarda turlicha o‘tgan zamon belgilari bilan ifodalanishiga qaramasdan, bir ma‘noni ya‘ni o‘tgan zamonda bajarilgan ishdagi tasdiqlanganlik ma‘nosini ifodalab kelmoqda.

O‘zbek tiliga tegishli bo‘lgan boshqa ikkita morfema og‘zaki belgilar va kopulaning birikmasidan olingan *er-kan*, *ekan* bilan ifodalansa, turk tilidagi *–miş*; o‘zbek tilidagi *mish*, *emish*; qozoq tilidagi *–мыс, -мис*, o‘zbek tilidagi *-ekan*, qozoq tilidagi *бұл, -ды, экен* turk tilida öyle kabilarni o‘tgan zamonni ifodalovchi evidensial morfemalar sirasiga kiritish mumkin.

Aytishlaricha ertaga qor yog‘ar ekan. – tasdiqlanmagan (mish-mish)

Menimcha ertaga qor yog‘sa kerak, osmonni qalit bulutlar qoplab havo sovib ketti.

– tasdiqlangan (xulosaviy evidensiallik)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda bir sariq sochli qizaloq bo‘lgan ekan. – tasdiqlangan (tarixiy)

Evidensiallik keng munozaralardagi mavzu bo‘lib, u dalil va tegishli ma‘nolar uchun qulay qopqoq atamasi sifatida ishlatilishi aksariyat olimlarni o‘ylantiradi. Umuman olganda evidensiallik ma‘lumot manbai yoki dalil ma‘nosi kabi tavsiflovchi atamalarni qo‘llash uchun ishlatiladi. Tasniflash qiyin bo‘lgani sabab, uni tasdiqlanmagan evidensiallik deya nomlash o‘rinlidir. R.Yakobson ilk marotaba evidensiallikni tipologik tizimga asoslagan hamda yozma ma‘lumotlarni tasdiqlanmagan, og‘zaki ma‘lumotlarni esa tasdiqlangan evidensiallik statusidir degan g‘oyani ilgari suradi [Jacobson 1957; 127].

Bilvositalik (shuningdek xulosaviylik deb ham ataladi) tizimlari ural va turkiy tillarda keng tarqalgan. Ushbu tillar ma‘lum bir ma‘lumot manbasi uchun dalillar mavjudligini ko‘rsatadi; ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri (xabar qilingan) ma‘lumot va bilvosita ma‘lumotni ya‘ni bilvosita xabar qilingan so‘zlovchi tomonidan qabul qilinishiga qaratgan holda farq qiladi. Boshqa ikkinchi turdagi dalil tizimlardan farqli o‘laroq, bilvositalik belgisi bilim manbai haqidagi ma‘lumotni ko‘rsatmaydi: ma‘lumot mish-mishlar, xulosalar yoki idroklardam kelib chiqadimi, ahamiyatsiz; biroq ba‘zi turkiy tillar bilvosita va xabar qilinmagan bilvosita tillarni ajratib turadi, buni quyidagi Turkish tillardagi fe‘llarda ko‘rish mumkin.

Gel-di o‘tgan – tasdiqlangan o‘tgan zamon

Gel-miş – tasdiqlanmagan o‘tgan zamon

Gel-di so‘zida belgilanmagan *–di* qo‘shimchasi tasdiqlangan o‘tgan zamonni bildiradi, lekin ikkinchi kelgan so‘zdagi *–miş* qo‘shimchasi ham o‘tgan zamonni bildiradi lekin tasdiqlanmagan bilvosita. Chunki, turk tilidagi *–miş* o‘zbek tiliga aniq, aftidan yoki tushunishimcha kabi iboralar bilan tarjima qilinishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tgan zamon

belgisi –di belgilanmagan yoki neytral hisoblanib, u bayonotni tasdiqlovchi dalillar mavjudligi yoki yo‘qligi aniqlanmagan.

Evidensiallik bevosita tasdiqlangan yoki bilvosita tasdiqlanmagan kabi turlarga bo‘linadi. Bevosita tasdiqlangan evidensiallik sirasiga so‘zlovchi tomonidan ko‘rish va boshqa hissiy tajribalar orqali to‘plangan ma‘lumotni hamda idrok etilgan ma‘lumotlarni kititsak, bilvosita tasdiqlangan evidensiallik sirasiga esa kotirovkalar va xulosalarni kiritish mumkin bo‘ladi. Tasdiqlanmagan evidensiallikka esa gumon, shubha kabilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi.

XULOSA sifatida shuni aytish joizki, tilshunoslikda evidensiallik keng ma‘noda berilgan gapning daliliy xususiyatini ko‘rsatish; ya‘ni bayonot uchun dalil bormi yoki yo‘qmi va agar bor bo‘lsa, qanday turdagi dalil ekanini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Undagi tasdiqlanganlik va tasdiqlanmaganlik ma‘nolarini ajratib olish uchun esa goh zamon suffikslari bo‘lmish morfemalar, modal fe‘llar yoki sezgi fe‘llarini bilish kifoya hamda har bir tadqiqotchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jakobson R. Shifters and verbal categories. In *On language* Cambridge, MA: Harvard University Press 1957. – PP 386-392.
2. Макарецев М.М. Эвиденциальность в пространстве балканского текста. – М.: Нестор-История, 2014. – P 28.
3. Friedman V. “The Category of Evidentiality in the Balkans and the Caucasus.” In *American Contributions to the Tenth International Congress of Slavists: Linguistics*, edited by A. M. Schenker, 1988. PP 121-139.
4. Aikhenvald A. 2004). *Evidentiality*. Oxford: Oxford University Press. – P 23.
5. Comrie, Bernard. Evidentials: Semantics and history. In L. Johanson & B. Uras Educations 2000. P 129.
6. Willet, Thomas L. (1988). A cross-linguistic survey of the grammaticalization of evidentiality. *Studies in Language* 12. – PP 51-97.
7. Johanson, Lars. (2003). Evidentiality in Turkic. In A. Y. Aikhenvald & R. M. W. Dixon Educations PP. 273–290.
8. De Lancey S. The Mirative and Evidentiality. - *Journal of pragmatics* 2001. – P 33.
9. Jakobson R. Shifters, verbal categories, and the Russian verb. Massachusetts: Harvard University Press 1957. – PP117-186.